

## BOSHLANG'ICH TA'LIM-POYDEVOR JARAYON.

*Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani XTB ga qarashli  
68-maktabning boshlang'ich ta'lism o'qituvchisi  
Umirova Oliya Do'siyorovna*

**Anatatsiya**

1. Boshlang'ich ta'lism bilimlar poydevori.
2. Hozirgi zamon o'qituvchisiga qo'yilgan talablar.
3. Millat kelajagida boshlang'ich ta'lismning o'rni.
4. Xulosa.

Boshlang'ich ta'lism umumiy o'rta ta'lismning poydevori hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda boshlang'ich ta'lism sifatini oshirishda alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quvchilar darsda ilg'or pedagogik tehnologiyalar va o'qitishning interfaol usullaridan keng foydalanilmoqda. Har bir ta'lism muassasalarida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qiziqarli o'quv metodik adabiyotlar jumladan elektron resurslarning katta zahirasi mavjud.

Bola dastlabki tasurotlarni boshlang'ich sinfda oladi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lism bilimlar poydevori deyiladi. O'qituvchi malakali bo'lsa bola qalbini ilm bilan qurollantirsa poydevor mustahkam bo'ladi. Shuning ucnun ham yoshlikda olgan bilim toshga o'tilgan naqishga qiyoslanadi.

Bugungi kunda har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan dolzarb maqsadlardan biridir. Har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'lism mustahkam poydevor vazifasini o'taydi. Boshlang'ich sinflarda olib boriladigan ta'limiyl ishlarning asosiy yo'nalishlaridan biri o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish muomila odobini shakllantirish hisoblanadi. Bizning oldimizda turgan eng katta muammolarimizdan biri ham shu. O'quvchilar yuqori sinfga chiqqanda birinchi galddagi muammo o'quvchilarning nutqidagi kamchiliklar ekanligi aytildi. Bu o'quvchining kitobni kam o'qishdan o'qigan asar yuzasidan og'zaki hiloyalash malakasi rivojlanmaganidan dalolat. Shu boisdan ota onalar bilan hamkorlikda ishlagan holda ularni tez tez darslarga tadbirlarga taklif qilib turish ham maqsadga muvofiqdir.

Barchamizga ma'lumki hamma kasblarni ham avvalo ustoz muallim o'rgatadi. Dastlabki sabiqni ham o'qituvchi beradi. Dastlabki Ona Vatan so'zlarining ma'no mohiyatini ham boshlang'ich ta'lism o'qituvchisi beradi.

Shuning ucnun ham barcha kasblar ichida o'qituvchilik muallimlik kasbi o'ta sharaqli va ma'suliyatli hisoblanadi. Shu o'rinda tabiiy bir savol tog'iladi. Xo'sh o'qituvchi kim? U qanday sifatlarga ega bo'lmg'i lozim? Xususan bugungi kunda o'qituvchi qanday malakalar bilan qurollantirmog'i kerak? O'qituvchi jamiyatning yosh

avlod ta'lim tarbiyasiga qo'yilgan ishtimoiy buyurtmasining asosiy ishtirokchisidir. Shuning uchun ham Respublikamizning birinchi prezidenti I.A.Karimov "Tarbiyachi -ustoz bo'lishi uchun boshqalarning aql idrokini o'stirish ma'rifiy ziyoсидан bahramand etish, haqiqiy fuqaro qilib yetishtirish uchun eng avvalo o'zi aynan shunday yuksak talablarga javob berishi lozim" Degan edi. Darhaqiqat o'qituvchilik kasbida chuqur bilimdonlik, zukkolik o'z kasbiga fidoyilik mahoratini muntazam shakllantirib borishga ishtiyoq bo'lmas ekan, u yaxshi ustoz - o'qituvchi bo'la olmaydi. Zero davlatimiz istiqboli Muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan olg'a surilayotgan ta'limdagi barcha islohatlarning ijobiy yechimi va ana shu ko'p ming yillik ziyokorlik ishining samarasi bo'ldi. Shuning ucun ham bugungi mustaqillik sharoitida o'qituvchilik kasbiga bo'lgan e'tibor va ehtiyoj har qachongiga nisbatan ortib bormoqda. Shu bilan birga boshlang'ich sinf o'qituvchisining oldida qo'yilgan talablar ham o'zgacha bo'lmoqda. Chunki bugun O'zbekiston mustaqil davlat sifatida jahonga yuz tutar ekan, bu borada pedagog o'qituvchilarining ayniqsa malakali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'z o'rni o'ziga hos mohiyati borligini unutmaslik lozim.

Xulosa o'rinda aytmoqchimanki, Boshlang'ich ta'limda olgan bilimlar yorqin Kelajak sari quyilgan dastlabki qadamlardir. Bu qadamlarning to'la to'kis bardavom bo'lishi uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari 45 daqiqa davomida parta oralab o'quvchilarini xatosini tuzatib mitti qo'lchalaridan ushlab birgalumda harakat qiladilar. Ularni chiroyli yozishga, ravon so'zlashga ifodali o'qishga o'gatib yorqin va buyuk kelajakni kashf qilib boradilar. Bugungi pandemiya sharoitida ham ta'lim ta'limdagi islohatlar bir daqiqa ham to'xtab qolgani yo'q. Muhtaram Yurtboshimiz boshchiligidagi Xalq talimi vaziri Sherzod Shermatov ko'pgina ishlarni amalga oshirdi. Farzandlarimizning sifatli bilim olishi uchun barcha qilay sharoitlarni yaratdi. Onlayin mакtab darslari onlayin to'garaklarning yo'lga qo'yilganligi buning yorqin misolidir. Faqatgina siz aziz va hurmatli ota onalardan farzandlaringizniq onlayin ta'lim olishini nazorat qilishligingizni bir oddiy o'qituvchi sifatida Respublikamizdagи barcha o'qituvchilar nomidan so'rab qolaman. Aziz ustozlar hamkasblarim boshlang'ich ta'lim o'qituvchilar maqolam oxirida sizlarga Kasbiy faoliyatiningizda parvozlar va omadlar tilayman. Sehri bilimingiz ila shunday mustahkam poydevor qo'yinki bu poydevor umrbod bo'zilmasin. Sog' bo'ling kelajak kashfiyotchilar ustoz muallimlar.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati.

1. Barkamol avlod orzusi I.A.Karimov
2. Boshlang'ich ta'lim jurnali 2019-yil 5-8-9sonlar.
3. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.I.A.Karimov.
4. Ziyonet.